

Gender - bu asosan jamiyat tomonidan muayyan ijtimoiy normativ sifatida belgilanadigan erkak va ayolning jihatlari, ya'ni jamiyatdagi insonning xatti-harakatini va bu xatti-harakatlarning qanday aniqlanishini belgilaydigan ijtimoiy normadir. Ba'zan "jins" atamasi "erkak va ayol" so'zining sinonimi sifatida ishlatiladi, ya'ni erkak va ayollik bilan bog'liq bo'lgan har qanday aqliy yoki psixologik xususiyatdan bilan farq qilishi mumkin. Bunday yondashuv bilan ko'proq erkak va ayolning psixologik xususiyatlarini tilda olinadi.

Kengroq ma'noda "jins" jamiyat tomonidan belgilanadigan erkak yoki ayol xatti-harakati uchun ma'lum bir standart hisoblanadi. Qadimdan zamonlardayoq ayollarning erkaklar bilan teng huquqli ekani qizg'in bahslarga sabab bo'lgan.

Chukchi shahrida XX asrning oxiriga kelib geteroseksual erkaklar va ayollar (ayollar kiyimlarini kiyib yuruvchi erkaklar va aksi erkaklar kiyimlarini kiygan ayollar), gomoseksual erkaklar farq qila boshladi. Bularning barchasi turli jinslardir.

Gender xilma-xillik uchun biologik asos qanchalik muhim bo'lmasin, uning ijtimoiylashuvi tarbiyaning natijasidir. Ajdodlarimizdan bizgacha etib kelayotgan shunday meyorlarimiz borki, "O'g'il bola yig'lamaydi" "Qiz bola irkit bo'lib yurishi mumkin emas" kabi axloqiy normalarga ko'ra ularda madaniyat shakllantirib boriladi. Bunday tarbiya nafaqat oilada, balki davlatning yordami bilan ham amalga oshiriladi. Kichkina o'g'il bolaga qizchalarning kuylagini kiydirishganda hamina unga kuladi. Agar onasi unga "o'g'il bolalar qizlarning kuylagini kiymaydi uyat bo'ladi" deb o'rgatsa u tezda ijtimoiy muhit bosimiga moslashadi.

Psixologlarning aytishicha, go'daklar bir yoshgacha qiziqishlari bo'yicha bir-biridan farqlamasada, lekin uning ijtimoiy muhit ta'sirining rivojlanishi bilan qiz va o'g'il bola o'z xatti-harakati orqali o'zining gender rolini o'zlashtira boshlaydi. Shu bilan bir vaqtda bolalarni jamiyatda o'zining jinsiy rolini o'rganishga, majburiy tizimlarni qabul qilish va amal qilishga o'rgatish lozim. Ayol rolining majburiyatlariga qiz bolani jamiyatning o'zi tayyorlab boradi. Masalan, diniy tarbiyaning asosida xotin-qizlarni erkaklarga itoat etish ruhida tarbiyalashga katta e'tibor qaratilgan, deyarli barcha dinda gender normalarga itoat etmagan ayollarga nisbatan

ega ekani ochiq e'tirof etildi. Ushbu deklaratsiya ayollar harakatining birinchi manifesti hisoblanadi.

Darvoqe, inson huquqlari haqidagi fan juda qadimda paydo bo'lgan bo'lsada, faqat demokratiya va yuqori ma'naviyatga ega davlatlardagina bu g'oya keng rivojlangan. 1948-yili BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»da erkak va ayollarning tengligi, zarur muhim ijtimoiy xizmatlardan bahramand bo'lish, siyosiy va iqtisodiy qarorlar qabul qilish, mehnat qilish huquqi va mehnat uchun teng haq olish, qonun bilan himoyalaniş borasidagi muammoli sohalar alohida ajratib ko'rsatilgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng qabul qilingan qonunlarda xotin-qizlar huquqlariga inson huquqining alohida ajralmas qismi sifatida qarala boshlandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida: «Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar» deya e'tirof etilishi mamlakatimizda ayollar jamiyatning faol a'zosi sifatida barcha sohalarda keng qamrovli ishtirok etishining huquqiy kafolati belgilanganidan dalolat beradi.

Shuningdek, 1995-yili «Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida»gi Konvensiyasining ratifikatsiya qilinishi, O'zbekiston Respublikasining «Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida»gi Qonuni, 1997-yil 30-avgustda «Teng qiymatli mehnat uchun haq to'lash to'g'risida»gi xalqaro konvensiyaning mamlakatimizda ratifikatsiya qilinishi, Prezidentimizning 1995-yil 2-martdagi «O'zbekiston Respublikasi davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlar rolini oshirish to'g'risida»gi, 1999-yil 17-martdagi «Xotin-qizlarning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbir to'g'risida»gi, 2004-yil 25-maydagi «O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonlari, shuningdek, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi hamda «Tadbirkor ayol» uyushmasining «Ishsiz deb e'tirof etilgan xotin-qizlar uchun o'quv kurslarini tashkil qilish to'g'risida»gi qo'shimcha buyrug'i va yana 60 dan ortiq xalqaro konvensiya, bitim va shartnomalning imzolanganligii ushbu fikrimizning yorqin dalilidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, "Bulaming barchasi yurtimizda xotin-qizlarning o'lsa va jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini oshirish, ularning hayotiy manfaatlarini yanada keng ta'minlash kabi ezgu maqsadlarga xizmat qiladi"<sup>8</sup>

Biroq bu mamlakatimizda gender muammosi to'liq hal etildi degani emas. Biz odatda jamiyatimiz hayotiga qarshi qaratilgan xavf-xatarlar haqida gapirganda, ko'pincha chetdan kiradigan taxdidlarni tushunamiz. Lekin eski zamondan qolgan ayrim salbiy holatlar, afsuski, buzg'ungi tinch va yorug' hayotimizga soya solib turibdi. Loqaydlik, bir-birini ko'rolmaslik, oilada er-xotin, qaynona-kelin, qo'ni-qo'shnilar o'rtasidagi kelishmovchilik, ayollarga bepisand qarash - bunday yaramas illatlar bizga, bizning xalqimizga mutlaqo yarashmaydi.

Xotin-qizlar huquq va erkinlarini qonun talabi asosida ta'minlash muammosi turli omillarga, jumladan, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlangani, umumiy madaniyat, fuqarolik jamiyatining shakllanish darajasiga bog'liq. Gender muammosini hal etish uchun davlat va jamiyatning birgalikdagi kuch-g'ayrati talab qilinadi. Ya'ni gender tengligi/davlatning himoya siyosati hamda xotin-qizlarning tashabbusi orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu esa, kelajakda siyosiy faol, huquqiy bilimga ega, faol ayollar safini yanada kengaytirish imkonini beradi. Har bir jamiyatning mavqei uning ayollarga bo'lgan munosabatiga qarab baholanar ekan, Yurtboshimiz aytganidek, «Ayollarni qancha ulug'lasak, hayotimizning chirog'i, umrimizning guli deb e'zozlasak, demakki, oilamizni, Vatanimizni e'zozlagan bo'lamiz»<sup>9</sup>.

<sup>8</sup> Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'lirizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.-T.;O'zbekiston. 2017 yil. 342 bet

<sup>9</sup> Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'lirizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.-T.;O'zbekiston. 2017 yil. 342 bet

# XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDA GENDER MUAMMOSI VA UNI HAL ETISHNING AHAMIYATI

*S.A'zamova – magistrant, QarDU*

Yer yuzidagi mavjudotlarning eng oliysi insondir, faqatgina XX asrga kelib insoniyat bu haqiqatni to'la-to'kis anglab etdi. Muammolar markazida inson turadi, bu muammo hal etilmas ekan, boshqalari o'z yechimini topmaydi. Hozirgi kunda deyarli barcha mamlakatlarda inson erkinligini hayotning turli sohalarida har tomonlama ta'minlashga muhim ahamiyat berib kelinayotgani bejiz emas. Gender muammosi ana shunday dolzarb masalalardan biridir.

qonunlar qo'llanilgan. Shu kungacha bunday holatlarni kuzatishimiz mumkin. XX asrning 80-yillarida Eronda Oyatolla Xumayn xotin-qizlar huquqlarini ta'minlovchi barcha qonunlarni bekor qildi, hattoki kiyinish va o'zini tutish qoidalariga rioya etmagan 20 ming ayolni qatl ettirgan edi.

Gender tenglik haqidagi g'oyani birinchi bo'lib sofist Antifon o'z asarlarida bayon qilib, shunday fikr bildirgan: «Adolatparvarlik – insonlarning ikkiyuzlamachiligi, guvohlar oldida qonunlarga rioya qilishdan boshqa chorasi yo'qligiyu, guvohlar bo'lmasa tabiiy ehtiyojdir. Tabiat barchani, ayolni ham, erkakni ham teng qilib yaratadi, lekin insonlar o'zlarini tengsiz holatga soluvchi qonunlarni o'zlari bunyod etadilar».

Mehnat turlari va san'at dastlab ayol zoti tomonidan kashf etilgan, erkaklar esa ularni rivojlantirib, takomillashtirgan. Demak, hozirgi zamon sivilizatsiyasining ibtidosida ayol turgan. Ayollar hukmronligi davridan erkaklar saltanatiga o'tish xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeiini o'zgartirdi, ayollar faoliyatini faqat oila chegarasida belgilashga moyillik kuchaydi. Ayollar o'z qobiliyati va iste'dodini rivojlantirish, namoyon etish huquqidan mahrum bo'lib, oiladagi o'rni faqat farzand tug'ib, ularni tarbiyalash bilan cheklanib qoldi. Oqibatda u erkak kishiga moddiy, ma'naviy, ijtimoiy, maishiy jihatdan qaram bo'lib yashay boshladi.

Ijtimoiy munosabatlar o'zgarib, qonunsizlik, ya'ni qadrginmatni poymol etish kabi ko'plab salbiy holatlarga nisbatan norozilik tuyg'usi shakllana borishi natijasida adolat, ayol erkinligi, huquqini e'tirof etish g'oyalari ayollarning ham erkin yashashga haqli inson ekani, jamiyat taraqqiyotida o'z o'rini topishi zarurligini ifodalay boshladi.

1789 yilda fransuz faylasufi J. Kondorining «Ayollarga fuqarolik huquqini berish haqida»gi maqolasi chop etilib, unda ayol ham jamiyatning a'zosi, ham millatning bir qismi ekani haqidagi fikrlar bayon etildi. Shundan so'ng 1791-yili Olimpiya de Guj tomonidan tayyorlangan «Fuqarolik va ayol huquqi deklaratsiyasi» da ham ayollarning erkin fikrlashi va o'z fikrini bildirish huquqiga

<sup>1</sup> Antifon (Antifon), Древнегреческий философ (5 век до н. эр.) Неизв. сочинения // Энциклопедия «Мир» - М., Мысль 2010. - с. 123